

Umurtqasiz hayvonlar Sarkodalilar ya`ni Soxta oyoqlilar (Sarcodina) sinfi

Rayimjonova Shohida Odinajon qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo`nalishi

1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** tezisdagi Sarkodalilar sinfi vakillarga xos xususiyatlar, hayot kechirish tarzi haqida ma`lumot berilgan. Ushbu tezisdagi sarkodalilar vakili hisoblangan ichburug` amyobasi va chig`anoqli amyobalarning tuzulish ,farqlari yoritildi. **Аннотация :** в диссертации приводятся сведения . В данной диссертации объяснены строение и различия саркоидной амебы, которые являются представителями саркодальных амеб.

**Abstract:** the thesis provides information about the characteristics and lifestyle of the representative of sarcodales in this thesis, the structural differences between the sarcoid amoeba and the shell.

**Kalit so`zlar:** Sarkodali, Ildizoyoqlilar, Nurlilar,Quyoshlilar va Akantariyalar, psevdopodiya.

**Ключевые слова:** Саркофаг, Корненожки , Лучи , Солнца и ложноножки акантарии .

**Key words:** Sarcoda ,Rhizopods, Rays, Suns and Acantharia, pseudopoidia.

**Kirish:** sarkodalilar- sarkomastigoforalar tipiga mansub bir hujayrali hayvonlar sinfi. Tanasi sirtidan sitoplazmatik membrana bilan qoplangan ; hujayra qobig`i bo`lmaydi. Ko`pchilik turlari tanasi ohak yoki chig`anoqli bo`lib, chig`anoq teshiklaridan sitoplazmasi o`simtalar (soxta oyoqlar) chiqib turadi. Yadrosi bita yoki bir nechta.

**Asosiy qism.** Sarkodalilar bir hujayralilar tipiga mansub hayvonlar bo`lib, tanasida qattiq po`sti bo`lmaydi, hujayrasida bitta yoki bir nechta yadrosi bor. Ular barcha bir hujayralilarga o`xshash butun tana sirti orqali nafas oladi. Soxtaoyoqlar ya`ni psevdopodiyalar orqali harakat qiladi. Chuchuk suvlarda va tuproqda yashovchi turlarida qisqaruvchi vakuoli bo`ladi. Yolg`on oyoqlilar yoki sarkodaliklar boshqa bir hujayralilarga qaraganda sodda tuzilgan. Bu sinfga 11000 dan ortiq turlar kiradi. Sinf ildizoyoqlilar , nurlilar , quyoshlilar va akantariyalar kenja sinfini o`z ichiga oladi. Sarkodalilar ikkiga bo`linish, jinsiy yo`llar bilan ko`payadi. Sarkodalilarning ko`pchilik turlari dengiz okean chuchuk suvlarda erkin holatda tuproqda ba`zi turlari parazit holatda hayot kechiradi. Ildiz oyoqlilar (Rhizopoda) kenja sinfiga amyobalar chig`anoqli ildiz oyoqlilar va foraminiferalar turkumlari kiradi. Odam va turli hayvonlar ichagida parazit amyobalarning bir nechta turlari bor. Entamoeba

histolytica-ichbrug` amiyobasi keng tarqalgan parazitlardan hisoblanib odamning qonli ichburug` bilan og`rishiga sabab bo`ladi. Yer sharining 10% dan 30% igacha odamlar ichburug` amiyobasi bilan zararlanishi mumkin. Ayrim hollarda masalan issiq iqlimda organizm immuniteti kuchsizlanib qolganida amiyobalar ichak devoriga kirib epiteli hujayralarini yemiradi, buning oqibatida og`ir qonli ichburug` kasalligi kelib chiqadi. Parazit amiyobalar kasallangan tishlarning kovagi, it, cho`chqa, ot va bosqa hayvonlar ichagida, hashorotlardan asalari malpigi naychalarida uchraydi. Ichburug` amiyobasi sista orqali tarqaladi. Ovqat qoldig`I bilan yo`g`on ichakdan to`g`ri ichakka tushgan amiyobalar psevdopodiylarini tortib olib, sharsimon shaklga kiradi. Axlat bilan tashqariga chiqadigan sistalar noqulay sharoit ta`siriga juda chidamli; nam tuproqlarda 2-3 oy davomida ham yashovchanligini yo`qotmasligi mumkin. Lekin sistalar issiq va quruq muhit ta`siriga uzoq chiday olmaydi. Sarkodalilarning hujayrasi sitoplazmatik membrna orqali tashqi muhitdan ajralib turadi. Ular hayotida sista muhim ahamyatga ega. Ichburug` amiyobasi kasalligi vaqtida davolanmasa surukali formaga o`tish mumkin. Kasal kishi juda ozib ketishi ba`zan halok bo`lishi mumkin. Ichburug` amiyobasi bilan kasallanish belgilari asosan issiq tropik va subtropik xududlarda yashovchi xalqlar o`tasida uchraydi. O`rta va Shimoliy kengliklarda yashovchi aholi ichida ham amiyoba uchrab tursa-da kasallanish hollari deyarli kuzatilmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Mavlonov. Sh. Xurramov. E. Eshonova. "Umurtqasizlar zoologiyasi". Toshkent 2006.
2. O. Mavlonov. "Biologia (zoologiya)".